



TRANSCHEGARAVIY SUV RESURLARI VA SUV XAVFSIZLIGI: MARKAZIY OSIYO TAJRIBASI

Abduvoitov Shohruxxon Tolibxon o'g'li

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik
Akademiyasi Xalqaro munosabatlar va
zamonaviy siyosiy jarayonlar
yo'nalishi 2-kurs magistranti
Telefon raqam: +998995892220*

Annotatsiya: Mazkur maqolada transchegaraviy suv resurslarining zamonaviy xalqaro munosabatlar, mintaqaviy xavfsizlik va iqtisodiy barqarorlikdagi o'rni tahlil qilingan. Xususan, Markaziy Osiyo mintaqasining o'ziga xos geografik va iqlimiy sharoitlari, suv iste'molining yuqori darajada qishloq xo'jaligiga bog'liqligi hamda SSSR parchalanganidan keyin yuzaga kelgan suv-energetika muammolari atroflicha yoritilgan. Shuningdek, maqolada suv xavfsizligi tushunchasi, uning ekologik va iqtisodiy o'lchamlari, shuningdek, transchegaraviy suvlarni boshqarishda integratsiyalashgan yondashuvlar (IWRM) va mavjud institutsional mexanizmlarning samaradorligi muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: Transchegaraviy suv resurslari, gidrosiyosat, suv xavfsizligi, Markaziy Osiyo, irrigatsiya, iqlim o'zgarishi, integratsiyalashgan boshqaruv (IWRM).

Annotation: This article analyzes the role of transboundary water resources in modern international relations, regional security, and economic stability. In particular, it comprehensively covers the specific geographical and climatic conditions of the Central Asian region, the high dependence of water consumption on agriculture, and the water-energy issues that emerged after the collapse of the USSR. The article also discusses the concept of water security, its ecological and economic dimensions, as well as integrated approaches (IWRM) and the effectiveness of existing institutional mechanisms in managing transboundary waters.

Key words: Transboundary water resources, hydropolitics, water security, Central Asia, irrigation, climate change, Integrated Water Resources Management (IWRM).

Kirish: Bugungi kunda iqlim o'zgarishi va aholi sonining o'sib borishi fonida transchegaraviy suv resurslari xalqaro munosabatlarning eng muhim strategik masalalaridan biriga aylanmoqda. Xususan, Markaziy Osiyo mintaqasida quruq iqlim sharoiti va suv iste'molyotining asosiy qismi qishloq xo'jaligiga to'g'ri kelishi suv va oziq-ovqat xavfsizligini o'zaro chambarchas bog'lab qo'ygan. SSSR parchalanganidan keyin yagona suv-energetika almashuv mexanizmining bo'linib ketishi hamda ekologik muammolar mintaqada suvni boshqarish va hamkorlikni yanada takomillashtirishni talab etmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi – Markaziy Osiyo misolida transchegaraviy suv resurslarining iqtisodiy, siyosiy va ekologik mohiyatini tahlil qilish, mavjud boshqaruv.



mexanizmlari samaradorligini baholash hamda suv xavfsizligini ta'minlash yo'llarini yoritishdan iborat.

Asosiy qism. Transchegaraviy suv resurslari deb ikki yoki undan ortiq davlat hududlari orqali oqadigan yoki ularga tegishli bo'lgan daryolar, ko'llar, yer osti suvlari va boshqa suv ob'ektlariga aytiladi. BMTning 1997-yilgi "Xalqaro suv yo'llaridan navigatsiyadan tashqari maqsadlarda foydalanish huquqi to'g'risida"gi Konvensiyasida transchegaraviy suvlar "bir necha davlat chegarasidan o'tadigan" resurslar sifatida ta'riflanadi[1]. Dunyo bo'yicha 276 ta transchegaraviy daryo havzasi mavjud bo'lib, ular yer yuzasining 45 foizini qoplaydi va jahon aholisining taxminan 40 foizi ushbu havzalarda yashaydi. Ilmiy manbalarda transchegaraviy suvlar masalasi ko'pincha "suv urushlari" yoki "gidrosiyosat" tushunchalari bilan bog'liq holda ko'rib chiqiladi. Biroq tarix shuni ko'rsatadiki, suv resurslariga oid davlatlararo munosabatlarda hamkorlik nizolardan ko'ra ko'proq uchraydi.

Transchegaraviy suvlarning mohiyati uch darajada namoyon bo'ladi. Birinchi daraja tabiiy-geografik darajadir: suv havzasi bir butun ekotizim bo'lgani uchun yuqori oqimdagi har qanday aralashuv quyi oqimda aks etadi. Ikkinchi daraja iqtisodiy darajadir: suv qishloq xo'jaligi, energetika, sanoat, kommunal xo'jalik va transport uchun zarur resursdir. Uchinchi daraja siyosiy darajadir: suvdan foydalanish rejimi davlatlararo ishonch, institutsional tayyorgarlik va diplomatik madaniyatga bevosita bog'liq. Jahon banki tasnifiga ko'ra, transchegaraviy suv resurslari uchta asosiy kategoriyaga bo'linadi: birinchidan, xalqaro daryolar – ikki yoki undan ortiq davlat hududidan oqadigan daryolar; ikkinchidan, chegaraviy ko'llar – ikki davlat o'rtasidagi ko'llar; uchinchidan, transchegaraviy yer osti suvlari – ikki yoki undan ortiq davlat hududida joylashgan suv qatlamlari[2].

Markaziy Osiyo kontekstida transchegaraviy suv resurslarining ahamiyatini tushunish uchun mintaqaning geografik va iqlimiy xususiyatlarini hisobga olish zarur. Mintaqa asosan quruq iqlim zonasida joylashgan bo'lib, yog'ingarchilik yillik o'rtacha 100-300 mm ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich dunyoning o'rtacha yog'ingarchiligi (860 mm) bilan solishtirganda juda past darajadir.¹¹ Mintaqadagi suv iste'molining 90 foizdan ortig'i qishloq xo'jaligiga to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkich jahon o'rtacha darajasidan (70%) sezilarli darajada yuqori bo'lib, suv va oziq-ovqat xavfsizligi o'rtasidagi chambarchas bog'liqlikni ko'rsatadi. Mintaqadagi paxtachilik – O'zbekiston va Turkmanistonda ayniqsa keng tarqalgan – suv iste'molining asosiy omili bo'lib qolmoqda.¹²

Markaziy Osiyo sharoitida transchegaraviy suv resurslari masalasini ayniqsa murakkablashtiradigan omil shundaki, SSSR davrida yagona tizimda boshqarilgan suv-energetika almashuv mexanizmi mustaqillikdan keyin bo'linib ketdi. Sovet davrida yuqori oqim davlatlari asosan suv chiqarib berar, buning evaziga pastki oqim davlatlaridan yoqilg'i va boshqa resurslar olardi. Mustaqillikdan keyin esa milliy manfaatlar ustuvor bo'lib, umumiy tizimni saqlab qolish uchun yetarli darajadagi majburiy mexanizm shakllanmadi.

Transchegaraviy suvlarning iqtisodiy ahamiyati, avvalo, irrigatsiyaga bog'liq. FAO ma'lumotlariga ko'ra, Markaziy Osiyoda suvdan foydalanishning eng katta ulushi qishloq xo'jaligiga to'g'ri keladi, ayniqsa sug'orma dehqonchilikning tarixiy ulushi yuqori bo'lgan.



O'zbekiston va Turkmanistonda bu ko'rsatkich yanada seziladi[3]. Demak, suv taqchilligi bevosita hosildorlikka, eksport salohiyatiga, qishloq hududlaridagi bandlikka va oziq-ovqat narxlariga ta'sir qiladi. Markaziy Osiyo sharoitida transchegaraviy suv resurslari masalasini yanada murakkablashtiradigan omil shundaki, Sovet davrida yagona tizimda boshqarilgan suv-energetika almashuv mexanizmi mustaqillikdan keyin bo'linib ketdi. Sovet davrida yuqori oqim davlatlari asosan suv chiqarib berar, buning evaziga pastki oqim davlatlaridan yoqilg'i va boshqa resurslar olardi. Mustaqillikdan keyin esa milliy manfaatlar ustuvor bo'lib, umumiy tizimni saqlab qolish uchun yetarli darajadagi majburiy mexanizm shakllanmadi. Suv xavfsizligi tushunchasi zamonaviy xalqaro hujjatlarda turlicha ta'riflanadi. BMTning 2010-yilgi rezolyutsiyasida suv xavfsizligi "barcha inson ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli miqdorda va sifatda toza suvga doimiy ravishda ega bo'lish" sifatida belgilanadi. Global Water Partnership esa suv xavfsizlikni "aholining, iqtisodiyotning va atrof-muhitning ehtiyojlarini qondirish uchun zarur miqdorda va maqbul sifatda suvga ega bolish imkoniyati sifatida ta'riflaydi.

Suv xavfsizligi uchta o'lchamni o'z ichiga oladi: birinchisi – jismoniy mavjudlik (suvning geografik jihatdan mavjudligi); ikkinchisi – iqtisodiy imkoniyat (suvdan foydalanish qobiliyati); uchinchisi – ekologik barqarorlik (suv ekotizimlarining sog'liqligi). Markaziy Osiyoda uchala o'lcham bo'yicha ham muammolar mavjud: jismoniy jihatdan suv resurslarining notekis taqsimlanishi, iqtisodiy jihatdan suv infratuzilmasiga investitsiyalarning yetishmasligi, ekologik jihatdan esa Orol dengizining qurib qolishi. Umuman olganda, transchegaraviy suv resurslari davlatlar o'rtasidagi raqobat manbai bo'lishi ham, hamkorlik platformasiga aylanishi ham mumkin. Qaysi ssenariy ustun kelishi resursning yetarililigiga emas, ko'proq boshqaruv madaniyati, institutsional mexanizm va siyosiy irodaning sifati bilan belgilanadi. Shu jihatdan, Markaziy Osiyo tajribasi global suv diplomatiyasi uchun ham muhim nazariy laboratoriya vazifasini bajaradi. „Suv resurslarining iqtisodiy ahamiyati mintaqada son-sanoqsiz. O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning 18 foizini qishloq xo'jaligi tashkil qiladi, uning asosiy resursi esa sug'orish suvi hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi sektorida 5 milliondan ortiq kishi band bo'lib, ularning daromadi bevosita suv ta'minotiga bog'liq[4].

Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq xavflar Markaziy Osiyoda suv resurslarini boshqarish masalasini uzoq muddatli strategik rejalashtirish bilan chambarchas bog'lab qo'ymoqda. Mutaxassislarning fikricha, kelajakda suv oqimining mavsumiy rejimi ham o'zgaradi: qish va bahor oylarida suv hajmi ortishi, yoz davrida esa kamayishi ehtimoli yuqori. Bu esa irrigatsiyaga asoslangan iqtisodiyot uchun qo'shimcha bosim yaratadi. Ayniqsa, vegetatsiya davrida suv tanqisligining kuchayishi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va oziq-ovqat xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli suv resurslarini boshqarishda faqat mavjud ehtiyojlardan emas, balki iqlim prognozlar va ekologik barqarorlik tamoyillaridan ham kelib chiqish zarur. Transchegaraviy suv resurslari masalasi bugungi kunda xalqaro xavfsizlik konsepsiyasining ham tarkibiy qismiga aylanmoqda. XX asr oxiri va XXI asr boshlaridan boshlab “environmental security” va “human security” kabi nazariy.





yondashuvlarda suv resurslari inson xavfsizligining asosiy komponentlaridan biri sifatida talqin qilinmoqda. Suv taqchilligi nafaqat iqtisodiy yo'qotishlar, balki ijtimoiy beqarorlik, ichki migratsiya, kambag'allik va davlatlararo ziddiyatlarning kuchayishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Shu bois suv masalasi ko'plab xalqaro tashkilotlar tomonidan strategik xavfsizlik muammosi sifatida ko'rilmogda[5]. Suv resurslarining siyosiy ahamiyati ayniqsa gidroinshootlar masalasida yaqqol namoyon bo'ladi. Yirik suv omborlari va gidroelektr stansiyalar nafaqat energetik obyekt, balki strategik boshqaruv vositasi ham hisoblanadi. Yuqori oqim davlatlari uchun gidroenergetika iqtisodiy mustaqillik va energetik xavfsizlik manbai bo'lsa, quyi oqim davlatlari uchun suv oqimining barqarorligi qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligining asosiy shartidir. Shu sababli Rog'un GES, Toktog'ul suv ombori yoki Qambarota GES kabi loyihalar mintaqadagi siyosiy munosabatlarga bevosita ta'sir ko'rsatmogda.

Transchegaraviy suv resurslarini boshqarishda institutsional mexanizmlarning roli ham muhim hisoblanadi. Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, suv resurslari bo'yicha muvaffaqiyatli hamkorlik mavjud bo'lishi uchun davlatlar o'rtasida muntazam muloqot, ma'lumot almashuvi va qo'shma monitoring tizimi yo'lga qo'yilishi zarur. Markaziy Osiyoda bu yo'nalishda Davlatlararo suv xo'jaligini muvofiqlashtirish komissiyasi (ICWC) muhim institutlardan biri hisoblanadi. Mazkur tashkilot suv taqsimoti, gidrotexnik inshootlardan foydalanish va mavsumiy suv rejimlarini muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Biroq uning vakolatlari cheklanganligi va qarorlar ijrosini ta'minlovchi majburiy mexanizmlar yetarli emasligi sababli samaradorlik darajasi hamon pastligicha qolmogda. Transchegaraviy suv resurslarini boshqarishda zamonaviy yondashuvlardan biri sifatida integratsiyalashgan suv resurslarini boshqarish (IWRM – Integrated Water Resources Management) konsepsiyasi keng qo'llanilmogda. Mazkur konsepsiya suv, yer va ekologik resurslarni o'zaro bog'liq holda boshqarishni nazarda tutadi. IWRM modeli suvdan foydalanishda iqtisodiy samaradorlik, ekologik barqarorlik va ijtimoiy adolat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga qaratilgan. Markaziy Osiyoda ushbu yondashuvni joriy etish bo'yicha bir qator xalqaro loyihalar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, amaliy natijalar hali ham cheklangan darajada qolmogda. Bunga asosiy sabab sifatida texnik infratuzilmaning eskirganligi, suv hisobining yetarli emasligi va davlatlar o'rtasidagi siyosiy ishonchning to'liq shakllanmaganligi ko'rsatiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, transchegaraviy suv resurslari Markaziy Osiyo mintaqasi uchun nafaqat iqtisodiy resurs, balki milliy va regional xavfsizlikning fundamental kafolati hisoblanadi. Mintaqadagi quruq iqlim sharoiti, sug'orma dehqonchilikning ustunligi hamda yagona suv-energetika tizimining parchalanishi suv masalasini doimiy e'tiborda saqlashni talab etadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, transchegaraviy suvlarni boshqarishdagi muammolar faqatgina texnik xarakterga ega emas, balki ular siyosiy ishonch, institutsional mexanizmlar va iqlim o'zgarishiga moslashish strategiyalari bilan bevosita bog'liq. Mavjud tuzilmalar (jumladan, ICWC) faoliyatini yanada kuchaytirish, integratsiyalashgan boshqaruv (IWRM)



tamoyillarini amalda keng joriy etish hamda davlatlararo o‘zaro manfaatli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish mintaqada suv taqchilligining oldini olishning yagona to‘g‘ri yo‘lidir. Bu esa Markaziy Osiyo mamlakatlarining uzoq muddatli barqaror rivojlanishi va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. UN Convention on the Law of the Non-Navigational Uses of International Watercourses, 1997, Article
2. World Bank, 'Transboundary Water Management: Principles and Practice', Washington DC, 2011, p. 4.
3. FAO AQUASTAT, 'Central Asia Water and Agriculture', Rome, 2021, p. 23.
4. O‘zbekiston Statistika agentligi, 2023 yilgi yillik hisobot, Toshkent, 2024, 45-bet.
5. WHO/UNICEF Joint Monitoring Programme, 'Progress on Household Drinking Water', 2021, p. 47.

